

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA O‘YINCHOQ NOMLARINING LEKSIK SEMANTIK
TUZILISHI

Ilmiy rahbar **Panjiyeva Nasiba Narmaxmatovna**

Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi Falsafa fanlari nomzodi dotsent

Ingliz tili va adabiyoti kafedrası

Shodmonova Laylo O‘ral qizi

Termiz davlat universiteti lingvistika ingliz tili yo‘nalishi 2 kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida o‘yinchoq nomlarining leksik va semantik jihatdan qiyosiy tahlili amalga oshirildi. o‘yinchoq nomlarining strukturaviy tahlili, semantik xususiyatlari va nomlash tamoyillari o‘rganildi. Shuningdek, ularning psixolingvistik ta‘siri va brendingdagi ahamiyati tahlil qilindi.

Tayanch so‘zlar: O‘yinchoq nomlari, leksik-semantik tahlil, morfologik tuzilish, nomlash tamoyillari, qiyosiy tahlil.

ABSTRACT

The study presents a comparative lexic and semantic analysis of toy names in Uzbek and English. The study examines the structural analysis, semantic characteristics, and naming principles of toy names. Additionally, the psycholinguistic impact and branding significance of toy names are analyzed.

Keywords: Toy names, lexical-semantic analysis, morphological structure, naming principles, comparative analysis.

O‘zbek tilidagi o‘yinchoq nomlari tahlil qilinayotganda, ularning shakllanishi, semantik jihatlari va leksik tarkibi e‘tiborga olinishi lozim. O‘yinchoqlar inson hayotining muhim qismi bo‘lib, bolalik davridan boshlab intellektual va jismoniy rivojlanishga ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ularning nomlanishi milliy madaniyat, an‘anaviy qadriyatlar va zamonaviy innovatsiyalar bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu bo‘limda o‘zbek tilidagi o‘yinchoq nomlarining tarkibi va ularning semantik guruhlari strukturaviy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

O‘zbek tilidagi o‘yinchoq nomlari turli manbalardan kelib chiqqan bo‘lib, ularni asosan quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

Zbek tilidagi o‘yinchoq nomlarining semantik strukturaviy tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu nomlar til taraqqiyoti va madaniy ta‘sirlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ularning aksariyati xalqona tushunchalar asosida shakllangan bo‘lsa, ayrimlari zamonaviy lingvistik jarayonlar natijasida rivojlangan.

O‘zbek tilidagi o‘yinchoq nomlari struktuviy jihatdan turli shakllarda bo‘lishi mumkin. Ularning ayrimlari sodda, ba‘zilari esa murakkab tarkibga ega bo‘lib, qo‘shimchalar yoki so‘z birikmalari yordamida shakllangan. Ushbu bo‘limda o‘yinchoq nomlarining morfologik tahlili beriladi[50;19].

O‘zbek tilidagi o‘yinchoq nomlari semantik jihatdan ko‘p qatlamli bo‘lib, ularni quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

Denotativ-semantik guruhlar

Bu guruh o‘yinchoqning tashqi ko‘rinishi yoki funktsional xususiyatlariga asoslanadi.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Masalan: Mashina, Samolyot, Qo'g'irchoq, Traktor, Robot – bu nomlar real hayotdagi predmetlar bilan semantik izomorfiya (moslik) asosida shakllangan. Bunday nomlar referent predmetni bevosita bildiradi.

Metaforik asosdagi semantika

Bu holatda o'yinchoq nomi bevosita predmetga emas, balki unga nisbatan bog'liq bo'lgan obrazli tasvirga asoslanadi.

Masalan: Oltin baliqcha – bu o'yinchoq faqat baliq shaklida emas, balki ertakdagi obraz asosida semantik yuklamaga ega. Bu yerda semantik konnotatsiya (qo'shimcha ma'no) mavjud.

Emotsional-semantik nomlar

Bu turdagi nomlarda o'yinchoqqa bo'lgan munosabat, mehr, yoki bolaning psixologik ehtiyoji aks ettiriladi.

Masalan: Beg'am bola, Do'stjon, Mushukcha, Beg'ubor – bu nomlar semantik jihatdan affektiv-emotsional yuklamaga ega bo'lib, sema tarkibida "yoqimlilik", "mehribonlik" kabi komponentlar mavjud.

O'zbek tilidagi o'yinchoq nomlari vaqt o'tishi bilan semantik jihatdan o'zgarishi mumkin. Bu jarayon yangi texnologiyalar paydo bo'lishi, madaniy ta'sirlar va lingvistik evolyutsiya bilan bog'liq. Semantik o'zgarishlarning quyidagi asosiy turlari mavjud:

Semantik torayish. Ba'zi o'yinchoq nomlari dastlab umumiyroq ma'noda qo'llanilgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan ularning ma'nosi torayib, aniq bir turdagi o'yinchoqlar uchun ishlatila boshlagan.

Masalan:

Qo'g'irchoq so'zi qadimda har qanday odam shaklidagi o'yinchoq uchun ishlatilgan bo'lsa, hozirda u asosan qiz bolalar uchun mo'ljallangan mato yoki plastmassa o'yinchoqlarga nisbatan ishlatiladi. Mashina – ilgari barcha turdagi texnika vositalarini anglatgan bo'lsa, hozirda bolalar uchun maxsus avtomobil o'yinchoqlari uchun ishlatiladi.

Semantik kengayish. Ba'zi o'yinchoq nomlari esa aksincha, avval tor ma'noda qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik ularning ishlatilish doirasi kengaygan. Masalan:

Robot so'zi dastlab faqat texnik mexanizmlar uchun ishlatilgan bo'lsa, hozirda har qanday mexanik yoki hatto qo'g'irchoqqa ham nisbatan ishlatiladi.

Dron – ilgari faqat harbiy va texnologik qurilmalarni anglatgan bo'lsa, hozirda bolalar uchun ishlab chiqarilayotgan kichik uchuvchi qurilmalar ham shu nom bilan ataladi.

Metaforik o'zgarishlar. O'zbek tilidagi o'yinchoq nomlarida metaforik jarayonlar ham kuzatiladi. Bu degani, ayrim nomlar o'zining dastlabki ma'nosidan boshqa ma'noga ega bo'lib boradi. Masalan:

Tulki – ilgari faqat hayvonni anglatgan bo'lsa, hozirda ayyorlik va epchillik timsoli bo'lgan o'yinchoqlarga ham ishlatiladi.

Sher – kuchli va jasur o'yinchoqlar, ayniqsa yumshoq hayvon shaklidagi o'yinchoqlar uchun qo'llanadi.

O'zbek tilidagi o'yinchoq nomlarining leksik-semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning tarkibi turli xil shakllanish jarayonlari va lingvistik xususiyatlarga bog'liq. Sodda nomlardan tortib murakkab va metaforik nomlarga bo'lgan barcha o'yinchoq nomlari milliy madaniyat, tarixiy taraqqiyot va zamonaviy tendensiyalar bilan bog'liq holda shakllanadi.

Bugungi kunda o'yinchoq nomlarining semantik jihatdan boyib borishi globalizatsiya, madaniy almashinuv va tilshunoslik jarayonlari bilan bog'liq. Yangi texnologiyalar va xorijiy tillarning ta'siri o'zbek tilida yangi o'yinchoq nomlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, kelajakda

ushbu sohani yanada chuqurroq o'rganish va o'yinchoq nomlari lug'atini yaratish tilshunoslik fanida muhim tadqiqot mavzusi bo'lib qoladi.

O'zbek tilidagi o'yinchoq nomlari nafaqat adabiy tilda, balki turli hududiy dialektlarda ham o'ziga xos farqlarga ega. Dialektal xususiyatlar ba'zan o'yinchoqlarning nomlanishida sinonimiya yoki fonetik tafovutlarni keltirib chiqaradi. O'zbekistonning turli hududlarida bir xil o'yinchoq turlicha nomlanishi mumkin. Bu holat ko'pincha mahalliy shevalarga xos leksik birliklar bilan bog'liq: Qo'g'irchoq – umumiy adabiy nom bo'lib, ba'zi viloyatlarda “g'ijjak”, “kuychoq”, “qo'g'ir” kabi variantlarda ham uchraydi.

Koptok – ayrim hududlarda “to'p”, “do'mbirak” yoki “dumaloq” shaklida qo'llanadi.

Aravacha – Toshkent va Farg'ona vodiysi shevalarida “chayla”, Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida esa “chayqatma” deb ham yuritiladi.

Bu kabi dialektal farqlar xalq orasida keng qo'llanilgan bo'lib, ular o'yinchoq nomlarining rivojlanish tarixidan ham dalolat beradi.

O'yinchoq nomlaridagi dialektal farqlar quyidagi omillar ta'sirida yuzaga kelgan:

Etnik omillar – turli xalqlar bilan aloqalar natijasida o'zbek tiliga ayrim o'yinchoq nomlari kirib kelgan va mahalliylashgan.

Geografik omillar – tog'li va tekislik hududlaridagi o'yinchoqlarning materiali, tayyorlanish usuli va nomlanishi farqlanadi.

Madaniy omillar – milliy o'yinlar va an'anaviy san'at turlari ayrim o'yinchoqlarning nomlanishiga ta'sir qilgan. Bu jihatlar o'yinchoq nomlarining dialektal ko'rinishlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbek tilida ayrim o'yinchoqlar bir necha sinonim bilan atalishi mumkin. Bunday sinonimik qatlamlar tarixiy, dialektal va madaniy omillarga bog'liq holda shakllangan.

Sinonimik nomlar quyidagi usullarda shakllangan bo'lishi mumkin:

Milliy va xorijiy nomlarning parallel ishlatilishi

Qo'g'irchoq va “kukla” (ruscha ta'sir natijasi)

Konstruktor va “yig'ma o'yinchoq”

Hududiy farqlarga ko'ra sinonimlar

Koptok – to'p, dumaloq

Chilvir – sakrash arqoni, mashq arqoni

Funksional o'zgarishlar natijasida sinonimiya

Mashina – avto, avtomobil o'yinchoq

Poyezd – temir yo'l o'yinchoq, vagoncha

Sinonimlarning mavjudligi o'zbek tilida o'yinchoq nomlarining boy va murakkab tuzilishini ko'rsatadi[44;133-137].

O'zbek tilidagi o'yinchoq nomlarining leksik-semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning rivojlanishida tarixiy, madaniy va lingvistik omillar katta rol o'ynaydi. Hududiy dialektal farqlar, sinonimik qatlamlar va metaforik o'zgarishlar orqali o'yinchoq nomlari tobora boyib borayotganini kuzatish mumkin.

Bu jihatlar o'zbek leksikologiyasida o'yinchoq nomlarini alohida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. O'yinchoq nomlarining kelib chiqishi, ularning tildagi rivojlanish tendensiyalari va sinonimik qatlamlarini chuqur tadqiq qilish kelajakda bu sohani yanada kengroq o'rganishga turtki bo'ladi.

Ingliz tilidagi o'yinchoq nomlari o'zining leksik-semantik xususiyatlari jihatidan murakkab va ko'p qirrali tizimni tashkil etadi. O'yinchoq nomlari bolalar uchun mo'ljallanganligi sababli, ularning semantik tarkibi doimiy ravishda o'zgarib, yangi birliklar bilan boyib boradi. Ushbu bo'limda ingliz tilidagi o'yinchoq nomlarining leksik-semantik tahlili amalga oshiriladi, ularning tematik guruhlariga bo'linishi va semantik tuzilishi aniqlanadi.

O'yinchoq nomlarini leksik-semantik jihatdan tahlil qilishda ularning tematik guruhlariga bo'linishi muhim o'rin tutadi. Ingliz tilida bolalar o'yinchoqlari turli funksional va semantik xususiyatlariga qarab bir necha asosiy guruhlariga ajratiladi:

Transport vositalari nomlariga asoslangan o'yinchoqlar – bu guruhga harakatni taqlid qiluvchi yoki bolaning motorik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi o'yinchoqlar kiradi. Masalan, cars, trucks, trains, planes, helicopters kabi transport vositalari, shuningdek, bicycles, scooters, skateboards kabi harakatga bog'liq o'yinchoqlar ushbu guruhga tegishli.

Tasviriy-simvolik o'yinchoqlar – ushbu guruhga qo'g'irchoqlar, hayvon figuralari, qahramonlar (superqahramonlar, multfilm va komiks qahramonlari) kiradi. Misollar: Barbie doll, action figure, stuffed animals, plush toys.

An'anaviy va stol o'yinlari – ushbu guruhga klassik stol o'yinlari, strategik va rol o'yinlari, shuningdek, karta va taxta o'yinlari kiradi. Masalan, chess, monopoly, scrabble, playing cards, board games.

Ingliz tilida o'yinchoq nomlari semantik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lib, ularning tuzilishi turli lingvistik mexanizmlarga asoslanadi. Ushbu tahlilda asosiy e'tibor sinonimiya, antonimiya, giperonimiya-giponimiya va terminologik tasnifga qaratiladi[65;215-220].

Sinonimiyaga misol sifatida, Matryoshka doll, stacking doll, Russian nesting doll atamalarini keltirish mumkin. Ular turli madaniyatlar va tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan bo'lib, mazmun jihatdan bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalaydi.

Antonim munosabatlar esa kam uchraydi, ammo ba'zi o'yinchoqlar o'zining materialiga yoki funksiyasiga qarab qarama-qarshi ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, soft toy (yumshoq o'yinchoq) – hard toy (qattiq o'yinchoq).

Giperonimiya va giponimiya tizimi o'yinchoq nomlarida keng uchraydi. Masalan, vehicle (transport vositasi) umumiy atama bo'lib, uning tarkibiga car, truck, bulldozer, helicopter kabi aniqroq nomlar kiradi.

Bundan tashqari, ayrim o'yinchoq nomlari kultural va tarixiy omillar ta'sirida shakllangan bo'lib, bu holat ularning semantik tarkibini kengaytirishga yordam beradi. Masalan, Teddy bear nomi AQSh prezidenti Teodor Ruzvelt bilan bog'liq bo'lib, bugungi kunda universal tushunchaga aylangan.

Ingliz tilidagi o'yinchoq nomlari doimiy o'zgarish va boyib borish xususiyatiga ega. Ushbu o'zgarishlar lingvistik va ekstralingvistik omillar ta'sirida yuzaga keladi. Lingvistik omillarga yangi birliklarning sinonim, giponim yoki yangi tasnif shaklida paydo bo'lishi kiradi[66;45-152].

Ekstralingvistik omillar esa madaniy rivojlanish, texnologik yangiliklar, reklama va marketing, xalqaro ta'sir kabi jihatlar bilan bog'liq. Masalan, Nerf blaster, Magna Doodle, glowpad kabi nomlar yangi texnologiyalar va marketing yutuqlari sabab ingliz tiliga kirib kelgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillaridagi o'yinchoq nomlari tilshunoslikning turli jihatlarini o'zida mujassam etgan murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'yinchoq nomlari faqatgina bolalar uchun mo'ljallangan buyumlarning atamaları emas, balki har bir jamiyatning madaniy, tarixiy va leksik taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular

nafaqat semantik jihatdan guruhlanishi, balki linguamadaniy tahlil nuqtayi nazaridan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, milliy xususiyatlarni aks ettiradi. O'yinchoq nomlari tarixiy rivojlanish jarayonida o'zgarib boradi, yangi texnologiyalar va ijtimoiy o'zgarishlar bilan boyib boradi.

Tadqiqot davomida onomastikaning hozirgi tilshunoslikdagi o'rni o'rganilib, nomlash jarayonining nazariy asoslari tahlil qilindi. O'yinchoq nomlari o'z tuzilishi, kelib chiqishi va ma'no jihatidan turlicha tasniflanib, har bir guruh o'ziga xos xususiyatlarga ega ekani aniqlandi. Ingliz va o'zbek tillarida o'yinchoqlarning nomlanishi turlicha bo'lishiga qaramay, ularning semantik asoslari va etimologik kelib chiqishi muayyan umumiyliklarga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Masalan, ingliz tilidagi o'yinchoq nomlari ko'proq xalqaro tendensiyalar, texnologik taraqqiyot va global reklama industriyasiga bog'liq holda shakllansa, o'zbek tilida esa milliy va tarixiy omillar asosiy o'rin tutadi. O'yinchoq nomlarining semantik guruhga bo'linishi orqali ularning funksional jihatdan turlarga ajralishi o'rganildi. Har bir til o'zining madaniy xususiyatlariga mos ravishda o'yinchoq nomlarini shakllantirgani aniqlandi. Misol uchun, ingliz tilida tijoriy nomlar orqali yangi o'yinchoq nomlari shakllansa, o'zbek tilida esa asosan tarixiy va folklor an'analari asoslangan atamalar mavjud. Bundan tashqari, ayrim o'yinchoqlarning nomlari umumiy tendensiyalar asosida o'xshash shaklda rivojlangan bo'lsa, ba'zilar til va madaniyat ta'sirida butunlay boshqacha nomlanishi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-maydagi "O'zbekiston Respublikasida lingvistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son farmoni.

Kruger, M. What's in a name? The sense or non-sense of labelling puppets in contemporary Western theatre. *Cogent Arts & Humanities*, 1(1)2014, <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/23311983.2014.990866>

Wierzbicka, A. Understanding Cultures Through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. Oxford University Press, 1997, 4. <https://files.znu.edu.ua/files/Bibliobooks/Kushynova/0033850.pdf>

Solomonik, I. Puppets Come on the Stage. Moscow: Nauka, 1992 p. 83. https://en.wikipedia.org/wiki/Inna_Solomonik

Mamatov, A. O'zbek tilining leksikologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 174-176-b

Nurmatov, Sh. Semantik tahlil va leksik birliklarning o'zaro aloqasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018. – 204-208-b

Hahn J.G. Albanesische Studien. Wien: Verlag der Kaiserlich-Königlichen Hof- und Staatsdruckerei, 1854. – P. 34.

Gurbanov A. Ozarbayjon onomastikasi. – Boku: Elm, 1986. – B. 34.

Stewart G.R. Names on the Land: A Historical Account of Place-Naming in the United States. New York: Random House,